





МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НАУЧНЫХ РАБОТ



Ч
А
С
Т
Ь
I

ООО "NP NATIONAL PUBLICATION"

ЛУЧШАЯ НАУЧНАЯ СТАТЬЯ
2023 ГОДА





1-часть
ID 200-299



Nosirjonov Faxriddin Muxiddin o'g'li, M.M.Agzamova <i>MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FAOLIYATIDA QUR'ONI KARIM</i>	81
Abdukarimova Mahfuzaxon Malikovna <i>O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING USULLARI</i>	84
Sarsenboyeva Umutgul Djoldasboyevna <i>MAKTABDA INGILIZ TILINI OSON O'RGATISH</i>	87
Мухаммадиева Азиза Анваровна <i>РАЗВИТИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ГИМНАСТОК 11-13 ЛЕТ</i>	91
Sultonmurotov Shohruh Sardor o'g'li <i>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI YANGI DARAJAGA OLIB CHIQISH ISTIQBOLLARI</i>	95
Abdullayeva Saodatxon Murod qizi, Turdiyev Madiyor Mamanazarovich <i>YANGI O'ZBEKISTON-YANGICHA DUNYOQARASH.</i>	100
Tuxtayev Mirjalol <i>TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI</i>	107
Yusupov Ma'mur Ma'rufovich <i>SHAXS KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ TA'LIMNING O'RNI</i>	111
Axmedova Dildora Jo'raxon qizi, Lutfulla Xoliyorov <i>NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA RANG VA SON KOMPONENTLI TOPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI</i>	114
Umaraliyeva Muslima Nabidjonovna, Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi <i>O'TKIR HOSHIMOVNING PSIXOLOGIK TASVIR MAHORATI ("URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASI MISOLIDA)</i>	117
Rustamov Baxtiyor Normamatovich <i>NEYRON TARMOQLARINING QO'LLANILISH JARAYONLARI TAHLILI</i>	119
Qodirova Zebo Gulboyevna, Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi <i>TIBBIYOT TERMINLARI MISOLIDA ONTOLOGIK BILIMLAR BAZASINI MODELLASHTIRISH</i>	128
Muhammad Ali Ro'zibayev <i>YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANZ DAVRI</i>	141
Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna <i>DIALOGIK DISKURSNING NUTQIY ETIKET QOIDALARI</i>	144
Шухратова Хуснора <i>БАДАШ ПРОШЛОЕ НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ.</i>	147
Urimbetov Axmet Abdirazakovich <i>QORAQALPOQ SUR QORAKO'L QO'YLARIDA JUN-TOLA QOPLAMI VA GUL UZUNLIGINING O'ZGARUVCHANLIK XUSUSIYATLARI</i>	151
Хамитов Нурмухаммед Сайфуллаевич <i>ДОСТУПНЫЙ СПОРТ"</i>	154
Коситов Диловар Давронжонович, Рахмонов Хуршед Джамshedович <i>КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ ТРИВЕНТРИКУЛЯРНОЙ ОККЛЮЗИОННОЙ ГИДРОЦЕФАЛИИ ПРИВОДЯЩЕЙ К РАЗВИТИЮ МАЛОФАРМАЦИИ КИАРИ .</i>	161
Қурбонов Бахром <i>ТАБЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ТАЛАБАНИ ФАОЛЛАШТИРИШ МЕЗОНИ СИФАТИДА</i>	168



<https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-yangi-bir-uygonish--uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda?view=koksaroy-qarorgohida-bayram-tadbiri-boshlandi>



DIALOGIK DISKURSNING NUTQIY ETIKET QOIDALARI

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Nutqiy axloq – murakkab hodisa, u inson tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Nutq odobi o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida insonning odatiy tarzda muloqot qilishi, unga tegishli bo'lgan barcha xususiyatlari hamda uning tug'ilgan va tarbiya olgan joyi, muhiti bilan bog'liqdir. Iltifot (kompliment) ham nutqiy etiket birligi sifatida tadqiq etilishi dolzarb muammolardan biridir. Maqolada iltifot va nutqiy odob qonuniyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy etiket, nutqiy etiket birliklari, fatik funksiya, suhbatdosh shaxsiyati, iltifot, mulozamat.*

Muloqotning muhim vositasi sanalgan til odamlarni birlashtiradi, ularning shaxslararo munosabatlarini va ijtimoiy aloqalarini tartibga soladi, amaliy faoliyatlarini boshqaradi, dunyoqarashlar tizimini va dunyoni milliy obrazlarda anglashni shakllantirishda ishtirok etadi, ma'lumotlarni, shu jumladan xalqning tarixiy, individning esa shaxsiy tajribasiga oid ma'lumotlarni yig'ishni va ularni saqlashni ta'minlaydi. Nutqiy etiket birligi va fatik muloqotning ko'rinishi bo'lgan iltifot – komplimentning xususiyatlari, uning turlari va bir qancha ijtimoiy-lingvistik vazifalari bugungi tilshunoslik oldida turgan masalalardan biridir.

Nutqiy etiket birliklari pragmatolingvistika doirasida tahlil etiladi. Bu boradagi tadqiqotlarning paydo bo'lishi nutq masalalarining turli qirralarini tobora chuqurroq o'rganish imkoniyatini bermogda. Nutqiy etiket birliklari tilning madaniy holatini aks ettiruvchi lingvopragmatik tadqiq etilishi muhim bo'lgan masalalardan biridir. Bunday birliklar umumiy bir qolip asosida paydo bo'lmaydi, aksincha ular individual qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Ingliz tilshunosi E.Sepir ta'kidlaganidek, odamlar o'zlarining ehtiyojlarini atrof-muhit bilan bevosita moslashtirishadi. "Ba'zida o'zgargan shart-sharoitlarga yaxshiroq moslashish uchun ham ijtimoiy axloq shakllarining zarurligini anglab yetish kerak". Ijtimoiy axloq me'yorlari jamiyatda yashashning muhim shartlari hisoblanadi: ular odamlarning ijtimoiy, amaliy faoliyatlarini tartibga solib turadi. Bizga ma'lumki, muloqotning samarali kechishi jamiyatdagi ma'lum bir qoidalar, muomala tamoyillariga bog'liq. Bu qoidalar nutq odobi deyiladi. Muloqot odobi, muomala mas'uliyatiga oid nodir asarlar, beqiyos fikrlar dunyo, shuningdek, Sharq madaniyati durdonalarida juda ko'p uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir..." (Mazmuni: til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir). Kaykovus ham "Qobusnoma" asarida yozgan edi: "Sovuq so'zlik bo'lmagil. Sovuq so'z bir tuxumdir, undan dushmanlik hosil bo'lur". Qattiq so'zning dilga qanchalar og'ir botishini Alisher Navoiy quyidagicha ifodalagan:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,

Har nechaki ag'yor durur yor aylar.

So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Nutqiy etiket birliklari bevosita me'yor tushunchasi bilan bog'liqdir. Har qanday jamiyatning hayoti, odamlarning jamoaviy faoliyatlarini tartibga solib turuvchi ijtimoiy me'yorlar va urf-odatlariga rioya qilmaslik imkonsizdir. Bunda, etiket qoidalariga birikkan urf-odatlar insonning



tarixiy-ijtimoiy tajribasini saqlashning va yetkazishning qadimiy shakli hisoblanadi. Bu qoidalar ichida u yoki bu sivilizatsiyani birlashtirgan (masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyo sivilizatsiyasi, zamonaviy G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika sivilizatsiyalari va boshqalar), butun insoniyatga yoki madaniy guruhlariga, yoki milliy madaniyatga (bu axloqiy me'yorlarning stereotiplariga asoslangan, masalan, "tipik ingliz", "tipik fransuz" va h.z.), hamda submadaniy va sotsiolektlarga (ularga talaba yoshlarning, o'rta sinf namoyondalarining axloqlari va boshqa uslublar) tegishli me'yorlar mavjud. Axloqning o'ziga xos me'yorlari jamoaning nutqiy faoliyatining uslubida va muloqotning paralingvistik vositalar tizimida (mimika, imo-ishoralar va boshqalarda) namoyon bo'ladi.

Biz har bir millat vakillarining nutqida o'z mentaliteti aks etishi haqida qayta-qayta ta'kidlayapmiz. A.Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani o'zbek xalqi orasidagi lingvistik xushmuomalalik, o'zbekona nutqiy odobning eng oliy ko'rinishlarini o'zida jamlagan noyob asardir. Asar tengsiz odob-axloq, o'zbekona madaniyatni o'zida aks ettiradi. Dastlab Yusufbek hoji va Otabek obrazini tahlil qiladigan bo'lsak, Yusufbek hojidagi salobat va tafakkur qudrati, Otabekdagi vijdon va yig'itlik haqidagi mustahkam tasavvur Qodiriy qahramonlarining aql-u zakosi, mulohazakorligini ko'rsatadi. O'zbekoyim o'z xohishi bilan Otabekka Zaynabni unashib qaytadi. Otabek bundan bexabar bo'lsa-da, bir dilxiralikni sezib turgandek. Romanning bu haqdagi voqeasi bayonida shunday deyiladi:

«...Anchagina so'zsiz ulturgandan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi:


– O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek, ma'lumki, ularning «qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini», albatta, bilardi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas, – dedi» (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. – B. 36)

Farzand javobidagi mantiqiy qudrat va ota-onaga nisbatan tavoze' shu qadar kuchli ediki, ota bundan qattiq ta'sirlanadi. Hoji O'zbek oyimdagi biroz kaltabinlik nuqsini bilsada, aybni boricha unga to'nkab qo'ymaydi, «biz» deb ko'rsatadi. Endi bu og'ir masalani uzil-kesil hal qiladigan qat'iy tamoyil bor. Bu ham bo'lsa, ushbu oila a'zolariga xos bo'lgan lafzga sadoqat tuyg'usidir. Ayni shu parchaning o'zida noyob o'zbekona qadriyatlar – farzandning ota-ona ixtiyoriga keskin qarshi chiqmasligi, ota hurmati, farzand e'zozi, oilaboshining ayoli izzatini oshkora to'kmasligi, ayniqsa, lafzga vafodorlik fazilati mahorat bilan ochib beriladi. Otabekka otameros bo'lgan bosiqlik, suhbat odobi, oz va ma'nili so'zlash, faqat muhim gap uchun og'iz ochish hislatlari ham o'g'il-qizlar tarbiyasi uchun har qachon ibrat olishga arziydi.

Xulosa qilib aytganda, iltifot, nutqiy odob – xulq-atvorning umumiy strategiyasi doirasida o'rganiladigan, insonga nisbatan ijobiy tuyg'ularni bildirishga yo'naltirilgan fatik muloqotdir. Iltifotning fatik vazifasi – nutqiy muloqot uchun umumiy yoqimli muhitini shallantirishdir. Shu sababli ham iltifot hamsuhbat tuyg'usi, fikri va harakatiga ta'sir ko'rsata oladi. Iltifot inson his-tuyg'ulariga ta'sir etadi. Shu bois uni suhbat muomalasiga ta'sir etuvchi «emotiv vosita» deb hisoblash mumkin bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гурочкина А.Г. Когнитивный и прагматический аспекты функционирования языковых единиц в дискурсе: Учебное пособие. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. - 102с.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 245.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. - М.: Прогресс, 1993. - С.259-265.
4. Тоирова Г. Фатика ва фатик мулоқот турлари .УзМУ хабарлари –Тошкент, 2016, 2-сон –Б.291-295
5. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1994. – 168 б;
6. Низомиддинова Қ. Н. ФАТИК МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ ВА ИЛТИФОТ ҲАҚИДА //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 27-31.
7. Намроева N. NUTQIY AXLOQ ME’YORLARI VA ILTIFOT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.